

TALABALARNI “NAY” MUSIQA CHOLG‘USINI IJRO ETISHGA O‘RGATISH JARAYONLARIDA E‘TIBOR QARATILISHI LOZIM BO‘LGAN JIHATLAR.

Karomat Ergasheva

Guliston davlat universiteti San‘atshunoslik fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada nay musiqiy cholg‘usini chalish texnikalari, ijrochiligini egallash jarayonida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlari, ijro mobaynida duch kelinadigan juziy kamchililar va ularga yechimlar hususida so‘z brogan. Maqola bir necha yillik tajriba ko‘nikmalara natijasi o‘laroq yozilgan.

Kalit so‘zlar: Nay, musiqa ilmi, amaliy mashg‘ulotlar, malaka, tajriba, ko‘nikma, ijro usuli. Ustoz-shogird an‘analari,

Har qanday musiqiy cholg‘uni chalishni o‘rganishdan avval albatta uning kelib chiqishi, tarixi, xususiyatlari haqida o‘rganivchi o‘rgatuchidan ma‘lumot olishi shart. Sababi talabalar musiqa chalayotgan musiqiy cholg‘u bilan ijro jarayonlarida his – tuyg‘ularga va emotsiyalarga ko‘proq urg‘u beradilar va eng muhimi o‘z qobiliyatlarini aynan ushbu soz orqali namoyon qilishga intiladilar. Tarixiy manbaalarga qaraganda Somoniylar davrida musiqiy hayot ushbu ilmga qiziqish juda yuqori darajada bo‘lgan ekan. Shu davrda yashab ijoq qilgan olim Kaykovusning saroy musiqachilariga tegishli axloqiy va kasbiy qoidalar mashhur “Qobusnoma”sida aks ettirilgan: “Agar nazirsiz (benazir) ustod bo‘lsang ham majlis ichidagi harif (ulfat)larga qarag‘il, agar musiqiydan zavq olg‘uvchi qarilar va xos odamlar bo‘lsa, mutriblik qil, yaxshi yo‘llarni va navolarni chertg‘il, Yana diqqat qilib qarag‘ilki, mazkur bazmda har kishi qaysi yo‘lni yaxshi ko‘radi, shu kishiga kosa yetg‘on choqda uni aytg‘il. Unday vaqtda ul odamlardin biror narsa umid qilsang, shuni topasan... kabi nasihatimus ammo haqiqiy o‘gitni tub zamiriga yetar ekanmiz, har qanday sohada bo‘lishidan qat‘iy nazar o‘z kasbimizga sadoqat va chinakkam mehnat qilib yahshi natijaga yetishishimiz mumkin bo‘ladi.

Talabalarga “Nay” cholg‘usini chalish texnikasini o‘rgatar ekanman, avvalo o‘z tajribam asosida to‘plangan nazariy va amaliy tajribam, amaliy mashg‘ulotlar jarayonida doimiy sinov va xatolar, o‘z qobiliyatim darajasida nay chalishda o‘z yondashuvining to‘g‘riligiga ishonchning sekin, ammo to‘g‘ri o‘sishi asosida shakllangan bilim va ko‘nikmalarimga tayangan holda mashg‘ulotlarni olib boraman.. Ushbu maqola orqali men o‘quvchilarni nay sozining sehrli kuylari ila musiqa dunyosining ichki olamiga kirishga, o‘zingizdan yashiringan musiqiy qobiliyat va imkoniyatlarni topishga va eng asosiysi nay



cholg'usini chalishga kirishib biroq mashg'ulotlardagi to'planganqiyinchililar, muammolarni tuzatishga yechim topishga harakat qilganman.

Nay yog'ochdan, g'arovdan va misdan yasaladi. Shunga ko'ra , "yog'och nay", "g'arov nay", "mis nay" deb ataladi. Naysimon cholg'ularning oilasi Ilming yil oldin paydo bo'lgan. Masalango'ri- qozg'on go'ridan topilgan cho'pon nayi burgut qanotidan yasalgan bo'lib, o'zbekistonda 7 va 3,5 ming yillik naysimon cholg'ularning tarixi ham mavjud. Ko'hna rivoyatlarning birida aytilishicha, Cho'pon bobo ichi bo'sh qamishni kesib olib, unda barmoq bilan berkitib-ochadigan teshikchalar o'yibdi.

Unga "nay" deb nom qo'yibdi. Farzandlariga cho'ponlik tayog'ini topshirar ekan, nayni ham qo'shib beribdi. Ular cho'lu biyobonlarda, yam-yashil yaylovlarda qo'y boqib, bobosi yasab bergan nayni chalib yurishibdi. Rivoyat qilishlaricha nay ohangiga "asir" bo'lgan qo'ylar podadan aslo ajralmas ekan. Yillar o'tib, bu soz shaharlik mashoyixlar qo'liga tegibdi. Ular ham nayning sehrli tovushidan lol qolishibdi.

Uni yanada takomillashtirib, zeb berishibdi. Nayni qamishdangina emas, balki 23 yog'ochdan, misdan va boshqa turdagi metallardan ham yasab ko'rishibdi. Usta naychilardan Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov va hozirgi kunda Mirza Toirov, Abdulahat Abdurashidovlar nomi barchaga ma'lum.

Bu ustozlarning "Cho'li iroq", "Chorgoh", "Bir kelsin" va shu kabi ajoyib asarlarni ijro etishganda kishining ko'ngli yoziladi va ruhiy kechinmalarini uyg'otadi va insonga o'zgacha kayfiyatni his etishga undaydi . I – IV asrgacha Movournaxr zaminida xukmronlik qilgan Kushon podshoxligi davriga tegishli yodgorliklar

Nay ijrochiligi tarixiga nazar solar ekanmiz, Abduqodir Ismoilov, Ayub Qodirov, Saidjon Kalonov, Usmon qori kabi benazir naychi sozandalarning asosan yakka ijrochi sifatida el orasida mashhur bo'lganliklariga guvoh bolamiz. XX asrning 20-yillaridan boshlab nay cholg'usi sozandalar ansambli tarkibida munosib o'rnini topdi, ommalashdi va bu cholg'uning mohir ijrochilari yetishib chiqdilar. Y.Rajabiy, R.Hamdamiyov, M.Muhammedov, D.Soatqulov, I.Qodirov, M.Toirov, X.Jo'rayev, A.Sobirov, A.Abdurashidovlar shular jumlasidandir. Nay sozining tarixiy shakllanishi mashhur ustoz naychi ijrochilar nomlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, har davrning ulug' ustoz naychi sozandalari o'zlarining betakror ijrolari bilan nay cholg'usini bugungi mukammallashuviga olib keldilar. Musiqa durdonalarini mahorat ila ijro qilib, shu soz uchun maxsus asarlar yaratib, yangi shogirdlar tarbiyalashda ularning xizmatlari beqiyosdir.

Dastavval nay cholg'usini chalishni emas chalishga tayyor holatga qanday kirishish kerakligini o'rganish zarur. Nay aslida tik holatda ikki oyoqqa tana vaznining teng taqsimlanishi, inson o'zini hotirjam va shay his qilishi va nay tutgan qo'llar erkin, siqqlik



holatida bo'lmashligi kerak. Yer tortishish kuchi nazariyasi naychilarga juda kata yordamchi aslida. Sababi yer tortishish kuchiga qarshi turib, tana muvozanatini to'g'ri saqlash lozim. Ijrochi holatidagi kichik noqulaylik keyinchalik butun ijro davomiyligiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, agar ijrochi bir tovoniga tana vaznini tashlab tursa unda qorin bo'shlig'i mushaklari doimo og'irlik his qilib taranglashadi, bu esa o'z-o'zidan erkin (diofragmal) nafas olishga imkon bermaydi.

Nay chalishda eng kata qurol bu nafas va uning taqsimoti hisoblanadi. Ijrochilik nafasini to'g'ri bajarish shartlari aniq va oddiy bo'lib, bu shartlar diafragma, pastki va o'rta qovurg'ularning faolligi hamda nafas olganda yelkalarining qimirlamasligidan iborat. Nafas musiqaviy ifodalikning eng muhim vositalaridan biridir. U ijrochida qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa, uning kuyga mosligi va tovush sifati yorqin, tiniq va xilma-hil bo'ladi. Nay cholg'usini chaladigan ijrochi doimiy nafas yo'llari kasalliklaridan saqlanishi, o'pka va unga ziyon yetkazuvchi zararli odatlardan yiroq yurishi shart.

Dars jarayonida o'quvchilar ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga nay cholg'usining tarixiy manbalari, o'rganiladigan har bir asarning rivoyati, cholg'uni mohirona ijro etgan mohir sozandalar, bastakorlar va nay yasovchi ustalar haqidagi bilimlarni ham berish lozim. O'quvchilarning nay cholg'usida ijrochilik darajalari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari ta'lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topgan. Nay cholg'usining barcha o'ziga xos xususiyatlarini bilish va boshqa milliy sozlarimizning tovush tembrlarini farqlashni o'rgatish ham muhim sanaladi.

O'quvchilarning nay cholg'usida ijrochilikni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsionpedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish muhim ahamiyatga ega.

Bu boradadarslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Shuningdek, darslarda "Ustoz-shogird an'analari"dan keng foydalaniladi. Ustoz – shogird an'analari milliy mumtoz musiqa tarixida mavjud qonun qoidalar, odob -axloq meyorlari asosida ustozlar o'g'itlariga quloq tutish va uning bergan bilimlarini mukammal o'rganishga intilib, tinimsiz mehnat va ijod qilish sharti asosida quriladi.

Dars jarayonida o'quvchilar ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga nay cholg'usining tarixiy manbalari, o'rganiladigan har bir asarning rivoyati, cholg'uni mohirona ijro etgan mohir sozandalar, bastakorlar va nay yasovchi ustalar haqidagi bilimlarni ham berish lozim.

O'quvchilarning nay cholg'usida ijrochilik darajalari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari ta'lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topgan.



Nay cholg'usining barcha o'ziga xos hususiyatlarini bilish va boshqa milliy sozlarimizning tovush tembrlarini farqlashni o'rgatish ham muhim sanaladi.

Qolaversa, turli janr va murakkablikdagi texnik asarlaridan namunalarini badiiy va ohang jihatdan mukammal, mazmunan idrok etgan holda ijro eta olish, yakka va ansamlda jo,rnavoz bo'la olishi, musiqiy asarni notadan o,,qiy olish, kuyga tavsif berish, xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lish, musiqaga oid atamalarni bilish, musiqaning ifoda vositalarini bilish, ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish, musiqa janrlarini bilish va ijro uslubidan ularni farqlay olish, har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u turlarini bilish o'quvchilarning musiqiy savodxonligini yanada oshiradi. Nay cholg'usida texnik ijrochilik mahoratini rivojlantirishda milliy pardalar asosida tuzilgan gamma, arpedjio, turli mashq va mashqlarni muntazam ravishda o,,rganib borish katta ahamiyatga egadir. Gamma, arpedjio va mashqlar ustida ishlashda ijrochilikning sifatiga, mayin xarakteriga va uning yumshoq ijrosiga, tovushning nafisligiga, ritmni aniq his etishiga, musiqiy ohang (intonatsiya) aniqliligiga va sadolanayotgan milliy ohangning sifatiga e'tibor berish zarur

Nay ijro imkoniyatini oshirishda o'quvchiga belgilab berilgan ijroviy repertuarigaijromaxoratini oshiruvchi mashqlarni ham kiritib, asta-sekin soddalikdan murakkablikkatomonyo'naltirib repertuarni rivojlantirib boorish maqsadga muvofiq bo'ladi. Naycholg'usidatenikaviy ijrochilik mahoratni rivojlantirishda gamma, arpedjio, turli mashqvaetyudlarnimuntazam ravishda o'rganib borish katta axamiyatga egadir. Gamma, arpedjio, mashqvaetyudlar ustida ishlashda ijrochilikning sifatiga, mayin xarakteriga va uning yumshoqijrosiga,tovushning nafisligiga, ritmni aniq his etish aniqliligiga, musiqaviy sado (intonatsiya)ninganiqliligiga va hokazolarga e'tibor berish zarur.

Musiqa asarini o'rganishga kirishishdan avval o'rganilayotgan asarni tahliletishyuzasidan o'tkaziladigan muntazam mashg'ulotlar o'quvchining ijrochilik kamolotidakattarol o'ynaydi. M

Asrlar davomida shakllanib, sayqaltopgan, xalqimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan mumtoz ashulalar, ularningtarg'ibotchilari bo'lmish ulug' hofizlarning ijodi ezgulikka qaratilgani tufayli hamishae'tiborga,e'tirofga munosibdir.

Nay cholg'usining o'lkan darg'alari ustoz san'atkorlarningijodiymerosinio'rganib, uni yanada keng targ'ib etish, yosh avlod qalbiga singdirish mas'uliyatli vasharaflivazifa bo'lib qolaveradi.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yurtimizda san'atning hususan cholg'u ijrochiligining mashg'ulotlarida zamonaviy musiqa cholg'ulari, o'quv jarayonini tashkil etishda zarur bo'lgan barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlangan.

Hozirda bu o'quv dargohlarida ta'lim olish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan.



Davlatimiz tamonidan yaratilgan bunday sharoitlardan to'g'ri va unimli foydalanishimiz kerak. Eng asosiysi, ustozlardan an'ana bo'lib kelayotkan milliy san'timizni kelajak avlodga buzmasdan qanday bo'lsa shundayligicha yetkazib berishimiz muhim vazifamiz sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov S, Matyoqubov M. "O'zbek an'anaviy cholg'ulari" – Toshkent: "Yangi nashr" nashriyoti, 2008
2. Matyakubov B. Damli va zarbli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati.-T., «Musiqqa» 2009
3. M. Matyoqubov "Qo'shnay". "Musiqqa", –T., 2011
4. Zuxriddin Abdullayev. Musiqqa ta'limida nay cholg'usini o'qitish masalalari. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz> 2024
5. Vohidov Yusufjon Qodirovich Nay ijrochiligi xususida uslubiy ko'rsatmalar Tashkent.
6. Raxmonov Faxriddin Numonovich. Nay ijrochiligida repertuar masalalari. IQRO JURNALI / 2023 VOL – 1 ,ISSUE–2 GUVOHNOMA № 060680

